

TIL O`QITISH VA O`RGANISHDA GLOBAL ISTIQBOLLARNI O`RGANISH

H. Xolmatova¹

(Ilmiy rahbar: PhD, Rustamova Adash Eshankulovna)

Annotatsiya:

Til o`qitish va o`rganishda global istiqbollarni o`rganish, bugungi kunda juda dorzarblik kasb etayotgan mavzulardan biridir. Global istiqbollar, ya`ni dunyodagi barcha tillarning o`zaro aloqalarini, ularning o`zgaruvchanligini va dunyodagi boshqa tillar bilan ta'sirini tushunishni o`z ichiga oladi. Bu, insonlarning boshqa tillar va madaniyatlarga oid ko`nikmalarini o`rganish, boshqa tillarda kommunikatsiya qilish va boshqa tillardagi matnlarni tushunishga imkon beradi. Ushbu maqolada tillarni o`qitish va o`rganishdagi global bo`glanishlar, til ta`limidagi yutuqlar va til o`rganish pedagogikasi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: til, video konferensiyalar, kompetentlik, global istiqbollar, til pedagogikasi.

doi: <https://doi.org/10.2024/taakpw93>

Til kishilar o`rtasidagi aloqa-aralashuv qurolidir. Shunga ko`ra u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til vositasida fikrlaymiz va boshqalarga ham fikrimizni uzatamiz. Tilni xalq yaratadi va unga sayqal beradi [1;3].

Til, insonlar o`rtasidagi kommunikatsiya uchun muhim bo`lgan vosita hisoblanib, umumiy muhitni tushunishda muhim rol o`ynaydi. Til orqali insonlar o`z o`ylarini, hissiyotlarini, maqsadlarini va bilimlarini boshqalarga ifodalash va ulashishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tilning turli xil turlari mavjud bo`lib, har bir jamiyat o`zining milliy tiliga ega bo`ladi. Bu esa jamiyatning identifikatsiyasi va madaniyatining asosiy qismi bo`lib, insonlar o`rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'tgan asrda rasman 2976 tilni qayd etgan bo'lsa-da, sohaning yetakchi mutaxassislari hozirgi paytda jami 6809 ta til mavjud ekanligini ta'kidlashmoqda. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6912 tilni qamrab oladi. Dunyodagi eng katta tillar olinadigan bo'lsa, statistik ma'lumotlarga ko`ra, 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ortiq, faqat 13 tilning har birida 50 mindan ortiq kishi muloqot qiladi [2;34].

Til moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Til o`rganish global oqimning bir qismni tashlik etadi, chunki bu jarayonda til o`rganuvchilar dunyoni tushunishga va tillarning jamiyat tarqaqiyotidagi o`rni va ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo`ladi. Til o`rganish esa insonlarga dunyo bo`ylab aloqalar tuzish, global muammolarga yechim topish va boshqa tillar sohasida rivojlanishlar qilish imkoniyatlarini beradi.

¹ Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi, Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili II fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Global istiqbollar, ya'ni dunyodagi barcha tillarning o'zaro aloqalarini, ularning o'zgaruvchanligini va dunyodagi boshqa tillar bilan ta'sirini tushunishni o'z ichiga oladi. Bu, insonlarning boshqa tillar va madaniyatlarga oid ko'nikmalarini o'rganish, boshqa tillarda kommunikatsiya qilish va matnlarni tushunishga imkon beradi. Global istiqbollar, globalizatsiya jarayonining bir qismidir. Bu insonlarga, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqni tushuntirishga yordam beradi. Bu jarayonning bir qismi sifatida, global istiqbollarni o'rganish, insonlarga dunyodagi boshqa tillarda kompetentlikni oshirish, turli xil tillarda matnlar tushunish va o'qishni oshirishga yordam beradi.

'Kompetentlik' tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik 'noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik'ni anglatadi. Kompetentlik (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish degan ma'nolarni ifodalaydi.

Til kompetentligi, insonning biror tildan samarali ravishda foydalanish va uni tushunish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar va bilimlarni ifodalaydi. Til kompetentligi o'quvchilarning o'zlarini ma'lum bir tilni samarali ravishda foydalanishlari uchun tayyorlashda muhimdir. Bu kompetentlikning asosiy ko'nikmalari quyidagilardir: 1. Tilni tushunish: O'quvchilarning biror bir til bo'yicha ma'nolarni tushunish va ularni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni oshirish. 2. Tildan foydalanish: O'quvchilarning tilni to'g'ri va samarali foydalanishlari, masalan, gaplarni qo'llash, yozuvni to'g'ri yozish va tarjima qilish. 3. Muloqot va fikrlarini ifodalash: O'quvchilarning biror bir tilda muloqot orqali fikrlarini ifodalashlari, savollar berish va javob berish orqali izohlashlari. 4. Tilni tahlil qilish: O'quvchilarning tilni tahlil qilishlari, masalan, matnlardagi muhim ma'nolarni aniqlash va izohlashlaridir. 5. Tilni ijtimoiy ravishda qo'llash: O'quvchilarning tilni ijtimoiy ravishda qo'llashlari, masalan, jamiyatda muloqot qilish, xabar berish yoki maqola yozish kabi ko'nikmalarni tashkil etadi.

Bu kompetentliklarni oshirish uchun o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, muloqotlar va muzokaralar orqali tilni o'rganish va samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish muhimdir.

Til pedagogikasi, o'quvchilarga tillarni o'rganish, fikr ifodalash, va muloqot qilishda yordam berish uchun foydali bo'lgan pedagogik usullarni o'rganishni va ularni amalga oshirishni qamrab oladi. Pedagogik o'rganish va muloqotni kuchaytirish uchun quyidagi yo'llarni amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarning tilni o'rganish uchun motivatsiyasini oshirish: bundan asosiy maqsad o'quvchilarning tilni o'rganishga qizitirish, qanday qilib qisqa fursatlarda chet tillarini o'rgatish bo'yicha maslahatlar berish va til o'raguvchilarning o'z fikrlarini ifodalashga imkoniyat yaratish uchun ularga qiziqishlariga mos keladigan mavzular va mashg'ulotlarni tashkil etish.

2. Tilning amaliy ko'rinishini oshirish: O'quvchilarga tilni amaliy ravishda qo'llash uchun imkoniyat yaratish. Mavzularni amaliy mashg'ulotlar

orqali o'rgatish va o'quvchilarga tilni amaliy ko'rinishda qo'llashga imkoniyat yaratish.

3. Mavzu bo'yicha muloqotlar va muzokaralar: O'quvchilarga til mavzusida muloqotlar va muzokaralar orqali fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilishlari uchun imkoniyat yaratish.

4. Ta'lim materiallaridan foydalanish: Til pedagogikasi uchun mo'ljallangan ta'lim materiallaridan foydalanib, o'quvchilarga tilni o'rganishda va muloqotlarni kuchaytirishda ularga yordam berish.

Tillarni o'rgatishda ushbu tamoyillardan foydalanganimizda, til pedagogikasi asosida o'quvchilarga tilni o'rgatish va muloqotni kuchaytirishlari uchun yaxshi imkoniyatlarni yaratishimiz mumkin bo'ladi.

Konferensiya (lot. konferentia -bir joyga to'playman) — davlat yoki partiya, jamoat va olimlar vakillarining muayyan masalani muhokama etish uchun yig'ilishi. XIX-asrning 2-yarmigacha G'arbiy Yevropada, asosan, ma'muriy-texnik, madaniy, iqtisodiy va huquqiy masalalarga oid yig'ilishlar ham konferensiya deb atalgan. Keyinchalik Konferensiya tushunchasi kongress atamasi o'rnida ham qo'llanila boshlandi. Videokonferensiya (VCC) - bu uch yoki undan ortiq masofaviy abonentlarning interaktiv [manba 3715 kunlik] o'zaro aloqasi uchun telekommunikatsiya texnologiyasi bo'lib, ularda boshqaruv ma'lumotlarini uzatishni hisobga olgan holda real vaqt rejimida audio va video ma'lumotlar almashish mumkin. Til o'rganishda va o'qitishda konferenslarda qatnashish, video konfersiyalarni ko'rish yoki badiiy kitoblar o'qish orqali til o'rganuvchilarda boshqa malakatlarning tillari va u tillarning tuzulishi haqida, madaniyati va tarixi haqida ma'lumotlar olishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tillarni o'rganish va o'qitishda global istiqbollarni o'rganishning yana bir muhim jihati shundaki, til o'rganuvchilarga global muamolarini o'z hayotlari va jamiyat bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu talabalarga global muomolarning dolzarbligini, ta'sirini ko'rishga yordam beradi, shuningdek ta'lim va ijtimoiy hayotda o'zgarishlar va yangiliklar qilish uchun imkoniyatlar eshingini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. 5-sinf ona tili darsligi. [G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2020(3-bet)].

[2]. O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ... (<http://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-talim-fan-vainnovatsiyalar-vazir-v1428.html?page=34>)

[3]. Kompetentlik tushunchasini mohiyati nimalardan iborat <https://fayllar.org/kompetentlik-tushunchasini-mohiyati-nimalardan-iborat-v4.html>.

[4]. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Konferensiya>.

[5]. As they are now defined and operationalized, the five perspectives are labeled Transmission, Apprenticeship, Developmental, Nurturing and Social Reform. <https://newprairiepress.org/cgi/v...> The Teaching.

[6]. How to Teach Global Perspectives in K-12 Education <https://www.linkedin.com/advice/0/how-do-you-teach-globalperspectives-skills-k-12-education>.